ALISHER IBODINOV HIKOYALARIDA AYOL XARAKTERI VA RUHIYATI TAHLILI

Hurmatoy Sheraliyeva,
FarDU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya
Maqolada Alisher Ibodinovning “Gulsafsar hidi” hikoyasida qahramon xarakteri va ruhiyati, inson xarakterining o‘zgarishida moddiylik va muhabbatning o‘rni, tasvirlar badiiylik nuqtai nazaridan o‘ziga xosligi, xarakter va muhitning o‘zaro ta’siri, xarakter tasvirida ilmiy-nazariy qarashlar o‘z ifodasini topgan.
Kalit so‘z*: xarakter, obraz, ruhiyat, detal, badiiylik mezonlari, kulminatsiya, syujet.*

Kirish

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Farg‘ona adabiyoti o‘ziga xos o‘rin tutadi. Jahon ilm-faniga munosib hissa qo‘shgan Ahmad al-Farg‘oniy, Burhoniddin Marg‘iloniy kabi buyuk allomalar, Huvaydo, Uvaysiy, Nodira, Amiriy, Muqimiy, Furqat, Xaziniy, Zavqiy kabi ijod ahlining yetishib chiqqanligi bu yurtning qadim-qadimdan adabiyot va san’at o‘chog‘i ekanligidan dalolatdir. Bugungi kun adabiy jarayonida ham Farg‘ona zaminida tug‘ilib voyaga yetgan, mana shu tabarruk tuproqni kechib ulg‘aygan yozuvchi va shoirlar borki, ularning ijodisiz o‘zbek adabiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyat borki, hamisha go‘zallikka, so‘zga, she’riyat va san’atga tashnadir. Zero, hazrat Navoiy aytganlaridek:

“Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin”. (Yangi O‘zbekiston axborotnomasi. WWW.in. academy.uz.)

Badiiy adabiyotning quroli so‘z ekan, bu insonning onggu tafakkur bilan siylanganiga ishora beradi. Inson Olloh yaratgan mavjudotlar ichida eng sevimlisiki, unga eng qimmmatbaho gavhar - so‘zga egalik qilish ilmi berildi. Shunday ekan, ijodkorning asosiy quroli so‘z, badiiy ifodadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko‘zlarimga ishonmayman. Tabiatan xayolkash yigitman, ammo Vatandan ming-minglab chaqirim olisda, Hind okeanining asov to‘lqinlari kemaning bortiga bosh urib yotgan joyda Asqad Muxtordan maktub olish tushimga ham kirmagan edi. Albatga, u hayot yo‘limni o‘zgarishiga qanchalik ta’sir qilishini hali bilmas edim”. Asqad Muxtor nazariga tushgan va yuksak baho olgan hikoya “Gulsafsar hidi” deb nomlanadi. Bu hikoya prototipi haqida adib esdaliklarida quyidagicha eslaydi.

“Farg‘ona institutiga kirish niyatida xolamnikida yashab yurgan paytlari bir qiz bilan tanishgan edim. U qurilishda elektr- payvandchi bo‘lib ishlar ekan. O‘sha paytgacha o‘zbek qizlari orasida bunaqa kasb egasini uchratmagan edim. Hayratimni qizga ochiq izhor qilsam, u: - Onam o‘lib ketgan, otam nogiron, bir joyda yotadi, uchta ukam bor. Yonginamizda qurilish bo‘layotgan edi. Har kuni, hatto tunlari ham elektrpayvandchilar tinim bilmay ishlashardi. Kalta kesilgan uzum novdasiday temir

tayoqchadan sanoqsiz shu’lalar sochib ishlayotgan payvandchilar ishiga mehrim tushdi. Ularning maoshi ham katta edi. O‘ylab turib, bittasiga shogird tushdim-u, shu kasbni egallab qo‘ya qoldim, - deya javob berdi. U uddaburon, pishikqina qiz edi. Bir-ikki kunlik muloqot, muzqaymoqxo‘rliklardan so‘ng izhor qilgan muhabbatim sovun ko‘pigidek narsa ekanligini bir zumda isbot kilib berdi”.

NATIJA VA MUHOKAMA

“Gulsafsar hidi” hikoyasida hikoyachi bola birinchi planga chiqib qolgan. Yozuvchi ta’kidlagan prototip ikkinchi planda yoritiladi, biroq yozuvchining ana shu qiz - payvandchi qizga bo‘lgan muhabbati “Gulsafsar hidi” hikoyasini yaratilishiga asos bo‘ladi. Hikoya qahramoni Murod endigina 10-sinfni bitirgan, ikki yil o‘qishga kira olmagan yigit. Dadasi Moliya bo‘limi boshlig‘i bo‘lganligi uchun u yerda ikki yil ishlab “malaka” oshirib, o‘qishga topshirishni niyat qilgan edi. Hikoya syujetining tuguni Murodning o‘qishga kirish uchun shaharga, dadasining o‘rtog‘i Komil tog‘anikiga, olib kelinishi bilan boshlanadi.

Har qanday badiiy asar qahramonlarning hayoti, xarakter qirralari, obrazlilik, syujet va kompozitsiyada o‘z yechimini topadi. Hikoyada ishtirok etgan har bir epizod va har bir detalga g‘oya yuklanganligi va u voqealar oqimida o‘z isbotini topib borishi lozim bo‘ladi. Hikoya dinamikasida turgan Murod obrazi atrofida otasi, uning qadrdon do‘sti Komil amaki, Xolida aya (Komil amakining rafiqasi), Robiya (Komil amakining qizi) va nihoyat, Xosiyat ismli payvandchi qiz tasviri beriladi. Bu obrazlarga ma’lum vazifa yuklatilgan bo‘lib, ularning har biri Murodning xarakter xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Voqealar rivojida Komil amakining birgina Robiya ismli qizi borligi, boshqa farzandi yo‘qligi ma’lum bo‘ladi. Har bir erkak kishining qalbida o‘g‘il farzandli bo‘lish orzusi bo‘ladi. Garchi bu masalada qiz farzandi ko‘p erkaklar ayolga tasalli berish uchun o‘zini baxtiyor ko‘rsatsa-da, lekin yuragining bir chekkasi kemtik bo‘lib, bu orzu-umid og‘riqqa aylanadi. “Otamning aytishicha, Komil amaki bir ulfatchilikda o‘g‘li yo‘qligidan nolib yig‘lagan, otam ham kayf ustida “o‘g‘illarimdan birini o‘g‘il qilib beraman”, deb yuborgan, ikkovlari shunga qo‘l olishgan ekan”.

Bu tasvir orqali hikoya qahramonlari taqdiri ustida boshlangan kelishuv asar syujetini anglashiladi. Alisher Ibodinovning qahramonlar xarakteri ustidagi izlanishlarining o‘ziga xosligi qahramonlarining avval boshidanoq mavjud kayfiyatda ekanligida ko‘rinadi. Qahramon hayotidagi mavjud muammoga yechim topganday pozitiv kayfiyatga o‘tadi. Xuddi shu voqea-hodisalar moddiylashadi va xarakter tahlili foydasiga ishlaydi.

Hikoyachi bolaning otasi ko‘zlagan maqsad shuki, Murodning Robiyaga uylanishi va Komil amakining o‘g‘illi bo‘lishi, shu orqali yuragini kemirib yotgan o‘g‘ilsizlik muammosidan qutilish va uy-joyiga munosib merosxo‘r tanlash istagini amalga oshirishdan iborat.

Hikoyada Komil amakining yakka-yu yolg‘iz farzandi Robiya portreti quyidagi parchada beriladi. “Har qalay, uning menga munosabati, hali aytganimday: singilning akaga munosabati singari edi. U ham onasiga o‘xshab to‘lagina, oq yuzli, moviy ko‘z qiz. Ota-onasining chizgan chizig‘idan chiqmaydi. Mana, bir yarim oydirki, shu yerdaman, biror marta uning ishdan kechikibroq kelganini ko‘rmadim. O‘zim

imtihonlarga tayyorlanish bilan bo‘lib, kinoga tusha olmasdim, lekin Robiyaning ham sira kinoga bormasligi meni hayron qoldirardi. U faqat televizordagina kino ko‘rar, shunda ham agar qaxramon qiz bilan yigit o‘pishib qolsa, sekingina xonasiga kirib ketardi”(Alisher Ibodinov shaxsiy ijodiy kanali).

Portret badiiy tasvir vositasi orqali yozuvchi xarakter talqini, ruhiyati, xatti-harakati bilan mutanosiblikka erishadi. Robiyaning haqiqiy o‘zbek qiziga xos ibo-hayosi borligi, andishaliligi, kamtar va kamsuqumliligi, ota-ona izmidan chiqmagan oqila qiz ekanligi aks etadi.

Hikoyada voqelik bilan xarakter mantig‘i to‘la mutanosib bo‘lishi janrning qat’iy talablaridandir. Agar ularning biri ustun boshqasi zaifroq ifodalansa, badiiylik mezoniga putur yetadi. (Solijonov Y. Adabiyot xiyoboniFarg‘ona nashr. 2020. B-18. Shu nuqtayi nazardan hikoya qahramonlarining ichki va tashqi qiyofasi janr talablariga to‘la mos keladi. Yozuvchi syujetga turli personajlar va voqealar qo‘shib o‘quvchini chalg‘itmaydi. Balki, kiritilgan voqea hikoya qahramonining xarakter xususiyati ochilishiga xizmat qiladi. Masalan, Komil amakining qo‘shnisi Sohib aka chet elga oilasi bilan ko‘chib ketgan. Uning shahardagi uylarning 8-qavatida yashovchi oshnasi to‘y qilmoqchi ekan. Sobir aka do‘stiga telefon orqali rozi ekanligini, nima kerak bo‘lsa qo‘shnisi Komil amakiga uchrashini aytadi. Bu o‘rinda qo‘shnilarning o‘zaro ahilligi, do‘stga bo‘lgan ishonch va o‘zbeklarga xos qo‘li ochiqlik va mehr-oqibat tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi.

Hikoyaga to‘y sahnasining kiritilishi kulminatsion nuqtaning ochilishi bilan bog‘lanadi. Murod va Xosiyatxonning uchrashib qolish sahnasi g‘oyat ishonarli tarzda ifodalanadi. “To‘yxona bir oz tinchigach, men uyga qaytib chiqdim. Bu yerda ham mehmonlar bo‘lishgan, chamasi, stolda ochiq-yopiq shishalar, meva-cheva, idish-tovoq... Ichkari eshikni ochishim bilan dimog‘imga xushbo‘y, xuddi safsargulning hidiga o‘xshash musaffo bir hid urildi. Bolaligimda qishlog‘imiz atrofidagi dalalarda safsargul ko‘p bo‘lardi. Bahorda, safsargullar ochilgan vaqtda, huddi hozir xonamdan anqib turgan xushbo‘y is kabi o‘tkir hid taralardi. Keyinchalik paxtazorlar kengayib, safsargullar yo‘qolib ketgan, lekin uning hidi bir umr dimog‘imda qolgan edi.

Hozir xam shu hidni dimog‘imda tuydimu entikib ketdim. Shu lahzada kimdir: “Voy!”-deb yubordi. Bu ayni kuy avjiga chiqqanda uzilgan torning sadosiday eshitildi qulog‘imga. Xona to‘riga osilgan katta oyna ro‘parasida yarim-yalang‘och bir qiz turardi. Men uning yuzini ham ilg‘ab ololmadim, faqat yarim ochiq yelkasi tunda chaqnagan chaqmoqday yalt etib tashlandi-yu, ko‘zimni chetga oldim”.

Yozuvchi tasvirlagan narsa-buyumlar, ya’ni detallar orasidan “stolda ochiq-yopiq shishalar” detaliga alohida urg‘u beriladi, bu kelgusi voqealar oqimida o‘z vazifasini ko‘rsatadi. Murodning dimog‘iga urilgan hid uchun aynan safsargulni tanlanishi, bu gul bilan personaj ruhiyatida gavdalanayotgan kechinmalar badiiy kechinma bo‘lib, bu qahramonning qalb dramatizmini uyg‘otib yuboradi. Ular orqali adib bolaning o‘z qishlog‘i va bahor fasli bilan bog‘liq xotiralarini mohirlik bilan tasvirlaydi, jonlantiradi.

Gulsafsarning guli o‘zidan juda kuchli xid taratadi. Shu sababli yozuvchi aynan shu gulni tanlagan bo‘lishi mumkin. Gulsafsar hidi asarda psixologik detal vazifasini bajaradi.

Personaj xarakterini ochish – psixologik tasvirning birlamchi muhim vazifasi. Gul hidi bu balog‘at yoshiga yetgan qizning ifori edi. Xosiyat bilan Murodning tanishuvi ana shunday tasodif orqali boshlanadi. Bu uchrashuvda yigit va qizning o‘ziga xos hayo va ibosi ko‘ngilga nur soladi. Qizni bunday holatda ko‘rgan Murod o‘zini darhol chetga oladi. Uning yarim ochiq yelkasini tunda chaqnagan chaqmoqqa o‘xshatish adabiyotdagi yangi badiiy topilma deyish mumkin. Agar Murod ochiq yelkalarni ko‘raverib “ko‘zi pishib ketgan” bo‘lganda, unga bu holat u qadar ta’sir qilmagan bo‘lar edi. Tasvir orqali yigitning ham odobi borligi, yaxshi tarbiya ko‘rganligini bilish mumkin. Hikoyada yana bir tasvirga e’tibor qaratish lozim.

“Eshik ochilib, xonadan qora atlas ko‘ylak kiygan qiz chiqib keldi. Bu qaddi-qomati nozik, oqish yuzli go‘zal qiz edi. Ko‘zlari katta-katta, yuzida qandaydir mayus, xayolchan ifoda. Qorachiqlarining qayeridadir bir qaragan odamning qalbini yolqinlatuvchi otash borday. Yuragim orziqib ketdi.

-Keling, yaxshimisiz? –dedim.

-Yaxshimisiz...”

Adib qizning tashqi ko‘rinishini ifodalar ekan, uning qaddi qomati nozikligi, go‘zalligi, shu bilan birga, “yuzida qandaydir mayus, xayolchan ifoda” ta’rifini beradi. Bu ta’rifga yanada aniqlik kiritish maqsadida qo‘llar detalini kiritadi. “Men qo‘limni cho‘zdim. Qiz ham qo‘lini uzatdi. Uning qo‘li boshqa ayollar qo‘liday so‘lim, yumshoq emas, qaynoq, lekin qandaydir dag‘alroq edi.” Bu gapda “dag‘alroq” so‘ziga alohida ahamiyat berish lozim. Qiz haqidagi bunday tasvir inson tashqi va ichki olami naqadar uyg‘unligi muallifning xolis xarakteristikasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bosh qahramonning ichki subyektiv idroki qiz portretini yanada ochiqlayapti. Portret orqali Xosiyatxonning go‘zalligi shu bilan birga, hayotda ko‘p qiyinchilik ko‘rgan, mehnatkash, sabr-bardoshli, aqlli va irodali qiz ekanligi anglashilyapti.

“Xosiyatxon peshband tutib olib, idish-tovoq yuvmoqda edi. Idish-tovoq yuvilayotgan burchak men uchun olam markaziga aylandi. Ko‘rinmas bir kuch meni shu burchakka tortardi, ammo yaqinlashsam, qandaydir olov kuydirib yuboradigandek. O‘sha burchak atrofida yarim doira yasab aylanaverdim”.

Yosh yigitning qalbida jo‘sh urayotgan muhabbatini payqamagan Xolida aya Murodga ish buyuradi. Po‘choq to‘la jomni ko‘tarib, uyga olib kirishi va novvoslarga berib chiqishini tayinlaydi. Tog‘ora uncha og‘ir bo‘lmasa ham bir kishi uchun ko‘tarish noqulay edi. Shu sababli Xolida aya Xosiyatxonni unga sherik qilib chaqiradi. Murod ayni ko‘nglidagi ish bo‘lganidan juda xursand bo‘ladi. Bu o‘rinda yozuvchi atay mana shu sahnani hikoyaga kiritadiki, voqealar kutilmaganda, ishonarli va tabiiy chiqadi. Qahramon ruhiyatining yangi qirralarini ochib beradi. U qalbini olovday yoqayotgan muhabbatini og‘ilxona ichiga kirishganda Xosiyatxonga izhor qiladi. Ularning suhbati dialog orqali beriladi va samimiylik bilan tasvirlanadi.

“-Meni jodugar emas, pari sehrladi, Xosiyatxon, pari.Bundan ortiq gapga jur’at qilolmadim. Og‘ilxonada tog‘oradagi po‘choqni oxurga ag‘darib, yerga qo‘yarkanmiz, qo‘lim qizning bilaklariga tegib ketdi.

-Xosiyatxon, o‘sha pari sizsiz! – deb bilagidan ushlaganimni bilaman, havoda nimadur vizilladi-yu, qars etgan tovush chiqdi. Yuzimdan o‘t chiqib, xashakka ag‘anab tushdim. Og‘ilxona eshigi chaqmoq tezligida ochildi-da, yana taraqlab yopildi.

Umrimda qiz boladan tarsaki yemagan edim! Yotgan joyimda kulib yubordim. Tarsakining shunaqangi shirin bo‘lishini endi ko‘rishim. Tanishganimizga uch soat bo‘lmay nima qilib qo‘ydim?! Yo‘q, men chindan ham es-hushimdan ayrilgan edim! Chinakamiga sehrlangan edim!”

XULOSA

Hikoya avvalida Xosiyatxon portretini ta’riflashda yozuvchi nozik, qaddi qomati kelishgan, shu bilan birga qo‘llari dag‘al, boshqa ayollarnikiga o‘xshab, yumoq va mayin emas edi, - deydi. Hikoya syujetining yoritilishida muallif barcha qahramonlar xarakterictikasi orqali jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy muammolar haqida ham ma’lumot beradi. Xosiyatxonning portreti bunga yaqqol misoldir. Uning qo‘llari tasviri hayotda ko‘p qiyinchilik ko‘rganligi, og‘ir mehnat qilaverganidan qatib, dag‘allashib ketganligi va oilaviy ahvoli og‘irligidan nishona. Biroq, uning go‘zalligi Murodning qalbini rom etgandi, muhabbat mayidan butunlay mast bo‘lgan yigit qizning shapalog‘ini ham bunchalar shirin ekanligini ta’riflaydi. Bu adabiyotdagi go‘zal badiiy topilmalardan biri bo‘la oladi.

FOYDALANILAYOTGAN ADABIYOTLAR

1. Солижонов Й. Адабиёт хиёбони.Фарғона нашр.2020. Б-18
2. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. Тошкент. Чўлпон нашр. 2002.
3. Рустамова И. Улуғбек Ҳамдамнинг характер яратиш маҳорати. Фарғона-2024.